

**O‘ZBEKISTON SSRDA IKKINCHI JAHON URUSHIDAN SO‘NG QISHLOQ
XO‘JALIGI TARMOQLARIDAGI O‘ZGARISHLAR.**

**ИЗМЕНЕНИЯ В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКСКОЙ
ССР ПОСЛЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ.**

**CHANGES IN AGRICULTURAL SECTORS IN THE UZBEK SSR AFTER
WORLD WAR II**

Xasanboyeva Gulxayo Ximmat qizi

O‘zbekiston tarixi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Gulhayoxasanboyeva29@gmail.com

+99891 1102903

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushidan so‘ng O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar yoritilgan. Dehqonchilik, chorvachilik, pillachilik kabi qishloq xo‘jalik tarmoqlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, sovet hokimiyati yillarida O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligida paxtachilik tarmog‘iga katta e‘tibor qaratilgan bo‘lsada, boshqa tarmoqlarda ham bir qator o‘zgarishlar ro‘y bergani tavsiflangan.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются изменения в сельском хозяйстве Узбекской ССР после Второй мировой войны. Приводится информация о таких секторах сельского хозяйства, как земледелие, животноводство и шелководство. Также отмечается, что, хотя в годы советской власти большое внимание уделялось хлопковому сектору в сельском хозяйстве Узбекской ССР, ряд изменений произошел и в других секторах.*

Abstract: *This article covers the changes in the agriculture of the Uzbek SSR after World War II. Information is provided about agricultural sectors such as farming, animal husbandry, and sericulture. It also describes how, although much attention was paid to the cotton sector in the agriculture of the Uzbek SSR during the years of Soviet power, a number of changes also occurred in other sectors.*

Kalit so‘zlar: *dehqonchilik, chorvachilik, pillachilik, qorako‘lchilik, kompleks, VASXNIL, agrokimyo.*

Ключевые слова: *сельское хозяйство, животноводство, выращивание коконов, выращивание каракулей, комплекс, Васхнил, агрохимия.*


Keywords: *agriculture, livestock, cocoon farming, karakul farming, complex, VASKHNIL, agrochemistry.*

Qishloq xo‘jaligida dehqonchilik va chorvachilik yetakchi o‘rinni egallaydi. Ikkinchi jahon urushi boshqa sohalar singari bu sohalarga ham yetarli talofat yetkazdi. Bundan tashqari 1946-yil sentabrda VKP(b) MQ va SSSR hukumatining “Kolxozlarda qishloq

xo‘jalik ustavini buzilishini tugatish choralari to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi[2;192]. Qishloq xo‘jaligiga aloqasi bo‘lmagan xo‘jaliklardan 6 ming gektarga yaqin yerlar kolxozlarga qaytarildi. Shu bilan birga 50 ming kolxozchi oilasidagi 25 ming yer “ortiqcha sifatida tortib olindi. Qishloq aholisini yerdan mahrum qilish jarayoni qishloq aholisi ahvolini yanada og‘irlashtirdi. Lekin, 1949-yilda tuman, shahar kolxozlarga rahbarlik lavozimlariga komsomol faollaridan- rais, brigadir sifatida yuborishlari oz bo‘lsada, ijobiy natija bera boshladi. Natijada 1950-yilga kelib paxta hosildorligi 20,1 sentnerga yetdi. Boshqa tarmoqlarni ham tiklash ishlari olib borildi. Bu paytda respublika chorvachiligi murakkab vaziyatda edi. Sababi, urush yillarida chorva mollari 1mln boshdan ziyodroqqa kamaygan edi. Holatni yaxshilash uchun kolxozlarga jamoat chorvasini vujudga keltirishga yordamlashildi. Chorva mollari soni birmuncha ko‘paytirilgan bo‘lsada, urushdan oldingi holatga yetmadi. Bunga sabab chorvachilikda moddiy-texnik bazaning yaxshi emasligi va mavjud zotlarning yaxshilanishiga qo‘yilmaganligi edi. Shuningdek, chorvadorlarning o‘z mehnatlaridan yetarlicha moddiy manfaatdor bo‘lmaganliklarini ham sabab sifatida keltirish mumkin. Qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari ham xuddi shunday ahvolda edi. Respublikada g‘alla, bog‘dorchilik, uzumchilik sohalarida yetarlicha mehnat qilinsada, yetarli hosildorlikka erishilmadi. Ya‘ni, bug‘doy, arpa, guruch, kartoshka, sabzavot ekinlari yetishtirish urushdan oldingi darajadan past edi. Sug‘oriladigan maydonlarning qisqartirilishi va texnika vositalarining yetarli emasligi kutilgan natijani bermadi.

Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligi tarmoqlari bir qadra kengayishiga yo‘l ochildi. O‘zbek guruch tajriba stansiyasi 1957-yilda O‘zbekiston SSRdagi yangi guruch navlarining 80 foizi O‘zbek guruch tajriba stansiyasi tomonidan taqdim etildi. Stansiya tomonidan makkajo‘xori navlari ham o‘rganildi. Barcha viloyatlarda sabzavot yetishtirish keng yo‘lga qo‘yildi. XX asrning 50-80 yillari oralig‘ida 45 ta sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan kolxoz, 35 ta sabzavot sutchilik sovxozlari tashkil etildi[2;214]. Shu yillarda sabzavot va poliz ekinlari miqdori ko‘paydi. Bu yillarda chorvachilik ham o‘sdı. Davlat va kolxoz mablag‘lari hisobiga sutchilik, go‘shchilik komplekslari, qoramol boqiladigan maydonlar hamda cho‘chqachilik komplekslari kengaytirilib 13 ta ixtisoslashtirilgan komplekslar barpo etildi. Respublikaning ayrim hududlarida Buxoro, Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlarida qorako‘lchilik sovxozlari tashkil etilib, qorako‘l terilari yetishtirildi. Yana bir muhim tarmoqlardan biri- pillachilik edi. Chunki, Ittifoq bo‘yicha yetishtirilgan pillaning uchdan ikki qismi O‘zbekiston SSRda yetishtirilar edi. Sholikorlik sovxozlari esa asosan Xorazm va Qoraqalpog‘iston ASSR hududiga to‘g‘ri kelgan. Chorvachilikning barcha sohalari bo‘yicha bo‘limlar va laboratoriyalar tashkil etilib, har bir sohaning muammolari bo‘yicha ilmiy ishlar olib borildi. Jumladan, 1950-yil 22-avgustda o‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti ot qili, yol va qoramol junini tayyorlash rejasi mutlaqo qoniqarsiz ekanligini aytib o‘tdi. Ot qili, yol va qoramol junini yillik tayyorlash rejasi 272 sentnerdan iborat bo‘lgan holda , 1950-yil 1-avgustgacha 79 sentner yoki yillik rejaga nisbatan 29 foizga bajarildi[4;119].

1978-yil 17-may kuni V.I.Lenin nomli Butunittifoq Qishloq xo‘jalik fanlari akademiyasida “Turkistonni sug‘orish ishlarini tashkil etish to‘g‘risidagi Dekreti



imzolangan kunning 60-yilliga bag‘ishlangan sessiyasi” bo‘lib o‘tdi. Sessiyada VASXNIL prezidenti P.Lobanov raisligida o‘tgan bu yig‘ilishda Dekret va O‘rta Osiyo respublikalari hamda Qozog‘istonda sug‘oriladigan dehqonchilikni rivojlantirish haqida, sug‘oriladigan dehqonchilikda fan-texnikani taraqqiy ettirish haqida paxtachilikda sug‘oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirishning agrotexnika asoslari xususida va sug‘oriladigan dehqonchilikni rivojlantirish to‘g‘risidagi masalalar ko‘rib chiqildi[1;10]. 1981-yil 10-dekabrda O‘zbekiston SSR KP MQ va O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “KPSS XXVI syezdi talablarida asosida respublika kolxoz va sovxozlarida mineral o‘g‘itlar va pestitsidlarni ishlatishning samaradorligini oshirish haqida”gi qarori chiqdi. Unda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, VASXNILning O‘rta Osiyo bo‘limiga yuqoridagi qarorni bajarish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Ulardan kelib chiqib, 1982-yil 28-29-may kunlari VASXNIL Prezidiumida “Paxtachilikda o‘g‘itlarni ishlatish samaradorligini oshirishning ilmiy asoslari”, “O‘g‘itlarni tayyorlash va ishlatishning mashina va mexanizmlarni tayyorlash mexanizmlari” mavzusidagi masalalar ko‘rib chiqildi.

Shu o‘rinda o‘simliklarni himoya qilish maqsadlarida ham o‘rinli edi. Shu maqsadda Respublikada o‘simliklarni himoya qiladigan xizmatlar ochilib, karantin punktlari, o‘simliklarni himoya qilish stansiyalari, signalizatsiya postlari, zararkunandalarga qarshi kurashuvchi mexanizatsiyalashgan otryadlar va laboratoriyalarda 10 mingdan ziyod entomolog, fitapotolog va boshqa mutaxassislar ishladi. Respublikada 11 ta zona agrokimyo laboratoriyasiga ega bo‘lgan agrokimyo xizmati barpo etildi. Ular 2 mln. 175 ming gektar sug‘oriladigan maydonda tekshiruv olib borib, tuproq agrokimyo kartogrammalarini tuzishdi, tuproq unumdorligini va qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini oshirishga doir tavsiyalar ishlab chiqildi. O‘zbekiston KP MQning 1981-yil 10-dekabr 949-son “KPSS XXVI syezdi talablaridan kelib chiqib, respublika kolxoz va sovxozlarida mineral o‘g‘itlarni saqlash va samarali ishlatish haqida”gi qarori chiqdi. Bu qaror asosida VASXNILning O‘rta Osiyo bo‘limi filialining farmoyishi chiqdi va ilmiy-tadqiqot tashkilotlariga topshiriqlar berildi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Sovet hukumati O‘rta Osiyo va ayniqsa, don, paxta kabi qishloq xo‘jaligi ekinlariga boy bo‘lgan O‘zbekiston SSR yerlarini o‘rganishdan manfaatdor edi. Markaziy Komiteti partiya rahbariyati paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti va paxta yetishtirish sohasidagi tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchi boshqa birlashmalar faoliyatiga qonuniy ravishda, noo‘rin aralashdi. O‘zbekiston SSR Paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti va paxtachilik sohasidagi tadqiqotlar bilan shug‘ullanadigan boshqa birlashmalarning tadqiqotlari natijasida paxta ekinlarini ko‘paytirish va sifatini yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi, ammo, joylardagi ma‘muriyat tomonidan rejani amalga oshirishga qat‘iy talablar qo‘yilganligi sababli ko‘pgina ilmiy ishlar takliflari amalga oshmagan.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baxranov Sh. O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni yechimini topishda butunittifoq paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti. // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. 5-son, 2025. – 10-15 betlar
2. Eshov B., Odilov A. O‘zbekiston tarixi. I jild. – T.: Sharq, 2010.
3. Murtazoeva R. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2003.
4. Ro‘ziboyev D. Chorvachilik sohasida yilqichilikning tutgan o‘rni (Qashqadaryo viloyati misolida). // Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida. Xalqaro konferensiya. – 119 bet
5. Razzoqov. A. O‘zbekiston paxtachiligi tarixi. – T.: O‘zbekiston, 1994.
6. Yaqubova D. O‘zbekistonda paxta yakkahokimligining o‘rnatilishi va uning natijalari. – T.: Tafakkur avlodi, 2021.
7. O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinchi kitob. – T.: Sharq, 2000.
8. Xasanboyeva Gulxayo. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar./Models, and methods for increasing the efficiency of innovative research international scientific-online conference.. –Berlin. 11-June, 2024.–117-120 betlar.